



TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda Hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-sentyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

4

32 937



Mas'uliyati cheklangan
jamiyat

4 511



Oilaviy korxonona

260



Unitar korxonona

6 677



Xususiy korxonona

48



Aksiyadorlik jamiyati


342



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-avgust oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-avgust oylarida, birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)




Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **14,4 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish
 ■ O‘rmon xo‘jaligi
 ■ Baliq xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,6 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



471

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

8 694

Ishlab chiqarish sanoati

65

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

192

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 9 422 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,6 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 14,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,3 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 16,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,0 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 8,5 % ga kamaygan (jami sanoatdagi ulushi 0,7 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 5,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,0 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **13,5** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




13,5 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




16,4 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




7,4 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




O'tgan yilga nisbatan **24,1** foizga oshdi



Xususiy korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- sentyabr holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 860 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,5 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 10,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 52,5 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 17,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,8 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 17,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 39,7 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 14 357 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,4 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 21,0 % ga (jami savdodagi ulushi 69,2 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 28,1 % ga (jami savdodagi ulushi 24,0 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 23,4 % ga (jami savdodagi ulushi 6,8 %) o'sishidir.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

10

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

774



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

26



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

26



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



355

yashash bo'yicha xizmatlar



3 417

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 3 772 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,9 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 18,3 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 90,6 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 25,0 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 9,4 %) o'sishidir.


Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofimlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

12



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 4 923 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 997 taga yoki 25,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 511 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1010 taga yoki 28,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 809 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18 taga yoki 2,2 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 36534 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5785 taga yoki 18,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 32937 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5743 taga yoki 21,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4361 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 211 taga yoki 5,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra, birlikda)

13




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra, 1 541 tani tashkil etib, ulardan 1 405 tasi yoki 91,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 127 taga yoki 9,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatimizda 113 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-avgust oylarida, birlikda)



Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi
(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Toshkent viloyati	1541	749	792
Oqqo'rg'on t.	18	7	11
Ohangaron t.	86	37	49
Bekobod t.	10	7	3
Bo'stonliq t.	72	37	35
Bo'ka t.	15	7	8
Quyi Chirchiq t.	48	26	22
Zangiota t.	198	93	105
Yuqori Chirchiq t.	128	61	67
Qibray t.	162	80	82
Parkent t.	25	13	12
Piskent t.	20	10	10
O'rta Chirchiq t.	100	43	57
Chinoz t.	24	11	13
Yangiyo'l t.	82	32	50
Toshkent t.	90	56	34
Nurafshon sh.	66	29	37
Olmaliq sh.	54	15	39
Angren sh.	116	75	41
Bekobod sh.	26	16	10
Ohangaron sh.	49	23	26
Chirchiq sh.	86	51	35
Yangiyo'l sh.	66	20	46

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini

va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent viloyati
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.: (71) 202-86-83